

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO‘G‘RISIDA HUQUQIY XULOSA**

№ TV4437364868

1. Loyihaning turi: shartnoma (15 - son)

2. Loyihaning nomi: *Budgetdan mablag‘ oluvchi muassasalarни dori vositalari va tibbiy buyumlar bilan ta‘minlash haqida*

3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma’lumot:
Farg‘ona shahar Tibbiyat birlashmasi tomonidan 2022-yil 20-yanvar kuni ishlab chiqilgan va 2022-yil 20-yanvar kuni “E-huquqshunos” elektron tizimi orqali huquqiy ekspertizaga yuborilgan. Hujjatda kamchiliklar aniqlanganligi sababli rad etilib, 2022-yil 21-yanvar kuni markazga qayta yuborilgan.

4. Loyiha bo‘yicha taklif: Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan.

Yuqoridagilarni inobatga olib, huquqiy ekspertizadan o‘tkazish natijalariga ko‘ra,

X U L O S A:

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

Markaz bosh yuriskonsulti



M. Tojimamatov

21.01.2022-yil.

“20” Yanvar 2022 yil

Farg'ona shahar

Ushbu shartnoma bir tomondan “MOHIRA FARM” MCHJ nomidan rahbar B.M.LATIFJONOV vakilligida kelgusida “Ta'minotchi” va ikkinchi tomondan Farg'ona shahar tibbiyot birlashmasi nomidan birlashma boshlig'i M.N.Shokirov vakilligida kelgusida “Buyurtmachi” o'ttasida har ikki tomonning amalda “Nizom”lari va O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi va “Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida”gi Qonuniga, shuningdek, boshqa amalda qonun hujjatlariga muvofiq quyidagi mazmunda tuzdilar:

I. Shartnoma premeti

- 1.1. “Ta'minotchi” “Buyurtmachi”ga ushbu shartnomaga asosan umumiyy qiymati (QQS bilan) 3700000 (Uch million yetti yuz ming) so'm bo'lgan dori vositalari hamda tibbiy buyumlar (kelgusida “Tovar” deb nomlanadi) spesifikatsiyaga asosan bir marotabalik yoki yillik talabnoma asosida yetkazib beradi.
- 1.2. “Buyurtmachi” esa o'z navbatida ushbu “Tovar”lar uchun kelishilgan haqni shartnomaning 2-bo'limida belgilangan shartlar asosida “Ta'minotchi”ga to'laydi.

II. To'lov tartibi

- 2.1. “Buyurtmachi” shartnoma imzolangandan so'ng yetkazib berilishi lozim bo'lgan “Tovar” umumiyy qiyamatining 30 % ni oldindan 1110000 so'm miqdorda “Taminotchi” ning hisob-raqamiga pul o'tkazish yo'li bilan to'laydi. Yetkazib berilgan “Tovar” lar to'loving qolgan, ya'ni 70 % qismi esa “Buyurtmachi” tomonidan “Tovar” qabul qilib olingandan so'ng 30 (o'ttiz) kalendar kuni ichida to'liq to'lab beriladi.

III. Tomonlarning huquq va majburiyatları

3.1. “Ta'minotchi” ning huquq va majburiyatları:

- 3.1.1. “Buyurtmachi” tomonidan “Tovar” umumiyy narxining 30 foizi “Ta'minotchi” ning hisobraqamiga oldindan to'langandan so'ng “Ta'minotchi” “Buyurtmachi” ni “Tovar” bilan ta'minlaydi.

- 3.1.2. “Ta'minotchi” “Buyurtmachi”ga “Tovar”ni tegishli xujjalalar asosida belgilangan tartibda hamda belgilangan standart sifat darajasida topshirish majburiyatini oladi.

- 3.1.3. “Ta'minotchi” “Buyurtmachi”ga qulaylik yaratish maqsadida “Tovar”ni o'z transport vositalarida “Buyurtmachi”ning manzilgohiga yetkazib beradi. Bu holda transport vositasi orqali yetkazib berish harajati “Ta'minotchi”ning zimmasida qoladi.

- 3.1.4. “Ta'minotchi” ning transport vositasida yetkazilgan “Tovar” ning miqdoridan aniqlangan kamomad hamda sifatsizliklar yuzasidan “Buyurtmachi” “Ta'minotchi” ning vakili ishtirokida “Tovar” yetkazilgan kundayoq dalolatnoma tuzib holatni tasdiqlaydi. Mazkur dalolatnoma asosan kamomad hisobi “Ta'minotchi” tomonidan 3 kun muddat ichida to'ldiriladi. Agarda ushbu harakatlar o'z vaqtida amalga oshirilmasa e'tiroz asossiz deb hisoblanib, inobatga olinmaydi.

- 3.1.5. “Ta'minotchi” Sog'liqni saqlash tizimidagi yuqori tashkilotlar tasdiqlagan markazlashgan taqsimot orqali dori vositalari va muruvvat yordamlaridan kelgan “Tovar” lar bilan “Buyurtmachi”ni ta'minlaydi. Taqsimotni tasdiqlagan tashkilotning ruxsatisiz “Buyurtmachi” “Tovar” ni olishga haqli emas.

3.2. “Buyurtmachi” ning huquq va majburiyatları:

- 3.2.1. “Buyurtmachi” “Ta'minotchi” dan shartnoma tuzilgandan so'ng yetkazib berilishi lozim bo'lgan “Tovar” uchun ularning umumiyy qiyamatining 30 foizini oldindan to'lagandan so'ng 10 kalendar kun ichida tegishli hujjatlarni rasmiylashtirib, “Tovar”ni ishonchnoma asosida qabul qilib olish huquqiga ega.

- 3.2.2. “Buyurtmachi” “Ta'minotchi” dan O'zbekiston Respublikasida farmokologik ro'yxatdan o'tkazilib, ishlatalishga ruxsat etilgan, sifati, markirovka va o'ramlari amalda farmasevtik va texnik talablarga javob beradigan hamda sifat sertifikatiga ega bo'lgan “Tovar” larni talab qilish huquqiga ega. Yetkazib berilgan “Tovar” sifatsiz va belgilangan texnik talablarga mos kelmasa, “Ta'minotchi” “Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida”gi Qonunining 26-moddasiga muvofiq “Tovar” ni qabul qilishni xamda ularning haqini to'lashni rad etib “Ta'minotchi” dan sifatsiz va belgilangan texnik talablarga mos kelmaydigan “Tovar” qiyamatining 20 foizi miqdorida jarima undirishga haqli.

IV. Tomonlarning mulkiy javobgarliklari

- 4.1. Tomonlarning mulkiy javobgarliklari O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksi, “Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida”gi Qonuni va boshqa amalda qonunchilik hujjatlari bilan tartibga solinadi.

- 4.2. “Ta'minotchi” tomonidan yetkazib berilgan “Tovar” uchun to'lanishi lozim bo'lgan to'lov haqi “Buyurtmachi” tomonidan o'z vaqtida amalga oshirilmasa, O'zbekiston Respublikasining “Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida”gi Qonunining 32-moddasiga muvofiq to'lov kechiktirilgan har bir kun uchun to'lanishi lozim bo'lgan umumiyy summaning 0,4 foizi miqdorida, ammo kechiktirilgan to'lov summasining 50 foizidan ortiq bo'lmagan miqdorda “Taminotchi” ga penya to'laydi.

- 4.3. “Ta'minotchi” tomonidan “Buyurtmachi” ga berilgan buyurtmalarni “Buyurtmachi” ushbu shartnomaning umumiyy summasidan kelib chiqqan holda to'liq olishi shart. Aks holda “Buyurtmachi” dan

summasining 5 foizi, tez buziladigan "Tovar"lar bo'yicha esa 10 foizi miqdorida jarima undiriladi. 4.4. "Ta'minotchi" tomonidan "Buyurtmachi" ga yetkazib berilishi lozim bo'lgan "Tovar"larni berishni "Ta'minotchi" asossiz ravishda kechiktirsa, kechiktirilgan har bir kun uchun "Ta'minotchi"ga yetkazib berilmagan "Tovar" umumiy qiymatining 0,5 foizi miqdorida, ammo yetkazib berilmagan tovar umumiy qiymatining 50 foizidan ortiq bo'limgan miqdorda penya to'laydi.

V. Fors-major holatlari

5.1. Taraflardan xech biri boshqa tarafning oldida ushbu shartnoma bo'yicha olgan majburiyatlarni taraflarning erki va istagidan tashqari paydo bo'lgan va ularni oldindan ko'ra bilish yoki bartaraf etish mumkin bo'limgan holatlар (urushlar, fuqarolik tartibsizligi, epidemiya holati, blokada, embargo, tabiiy ofatlar) bilan bog'liq holatda bajarmaganligi uchun javobgar bo'lmaydi.

VI. Nizolarni hal qilish tartibi

6.1. Ushbu shartnoma yoki unga bog'liq masalalar yuzasidan kelib chiqadigan barcha nizolar tomonlar o'rtaida muzokara yo'li bilan hal qilinadi. Agarda kelishuvga erishilmasa qonun hujjatlarida belgilangan tartibda "Buyurtmachi" joylashgan joydag'i iqtisodiy sud tomonidan hal qilinadi.

VII. Shartnoma muddati va uni o'zgartirish tartibi

7.1..Mazkur shartnomaga kiritiladigan barcha o'zgartirishlar va qo'shimchalar faqat tomonlarning o'zaro yozma kelishuvlari bilan kiritilishi mumkin.

7.2. Shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan ikki nusxada tuzildi.

7.3. Ushbu shartnoma hududiy G'aznachilik boshqarmasi (bo'limi) tomonidan ro'yxatdan o'tkazilgan kundan boshlab yuridik kuchga kiradi.

7.4. Shartnoma 2022-yil 31-dekabr kuniga qadar amal qiladi.

VIII. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha tomonlar kelishivi

8.1. Taraflar shartnoma tuzishda, shartnomaning amal qilish muddatida va ushbu muddat tugaganidan so'ng, shartnoma bilan bog'liq korrupsiyaviy xarakatlarni sodir qilmaslikka kelishib oladilar.

8.2. Taraflar shartnomadagi korrupsiyaga qarshi qo'shimcha shartlarda belgilangan korruptsianing oldini olish choralarini tan oladi va ularga rioya etilishi bo'yicha xamkorlikni ta'minlaydilar.

8.4. Xar bir taraf shartnoma tuzilgan paytda bevosita o'zi yoki uning ijroiya organlari, mansabdor shaxslari xodimlari tomonidan shartnoma bilan bog'liq munosabatlarni yuzasidan qonunga xilof ravishda pul, moddiy qiyamatliklar berilmaganligini, shartnoma tuzilishi evaziga norasmiy pul yoki boshqa moddiy qiyamatliklar olinishiga yo'l qo'yilmaganligini, taklif etilmaganligini, ularni berishga va'da qilinmaganligini, shuningdek xar qanday turdag'i imtiyoz, ustunliklar olinmaganligini kafolatlaydi.

8.5. Shuningdek tomonlar o'rtaida korrupsiya xolatlari sodir etilganda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi va Savdo-sanoat palatasining 2021-yil 12-noyabrdagi 1/4671,01-19/7284,7/01-08-9544-son qaroriga muvofiq vakolatli davlat organlarini darxol xabardor qilishi shart.

8.6. Bir tarafning talabi bo'yicha ikkinchi taraf tomonidan qoidabuzarliklarni bartaraf qilish bo'yicha oqilona muddat ichida tegishli choralar ko'rilmagan yoki ko'rib chiqish natijalari xaqida xabardor qilmagan taqdirda, ushbu taraf shartnomani bir tomonlama to'xtatib turishga, bekor qilishga xamda zararni to'liq qoplab berishni talab qilishga xaqli.

IX. Tomonlarning pochta manzili va to'lov rekvizitlari:

"Ta'minotchi"

"Buyurtmachi"

"МОХИРА-ФАРМ" MCHJ

Farg'ona viloyati, Farg'ona Toshloq tumani
Do'stlik ko'chasi 10 uy

Ombori: Farg'ona Shahar Tinchlik k, 15 uy

Bank: TOSHKENT sh "ALOQA BANK" BOSH
OFISI MFO: 00401 INN: 305 214 734

X/r: 2020 8000 9008 4827 7001

Tel: +99891 124-29-01, +99895 400-90-50

Farg'ona shahar tibbiyot birlashmasi

Farg'ona shahar Qirlola ko'chasi 2-uy

Shh/r: 10022860304017072110054006

STIR: 200145074 OKONX:97600

Farg'ona shahar bo'yicha G'aznachilik
boshqarmasi

H/r:23402000300100001010

Markaziy bank Toshkent shahar HKKM

MFO: 00014 STIR: 2011122929

"МОХИРА-ФАРМ" MCHJ

B.M.LATIFJONOV

Farg'ona shahar tibbiyot birlashmasi
boshligi:

M.N.Shokirov



С П Е Ц И Ф И К А Ц И Я І Ц Е Н.

ПОСТАВЩИК:

ООО «Мохира-фарм»


по договору № 15 от 20 » Январ 2022 г

ПОКУПАТЕЛЬ:

Фаргона шахар Тиббийт бирлашмаси

№	Наименование товаров (работа, услуг)	Ед. изм	Кол- во	Базовая цена	Нац пост	Стойм ость пост	Нац поср нац	Общ нац	Цена	Стоймость поставки	НДС	
											Ставка%	Сумма
1	Рифампин	Уп	185	17391,30	7	18609	8	15	20000	3700000	без НДС	
	Всего к оплате:									3700000		

Общая сумма договора составляет: Три миллиона семьсот тысяч.



ООО «Мохира-фарм» директор:

Б.Латифжонов

Фаргона шахар Тиббийт бирлашмаси:

М.Н. Миронов

М.Н. Миронов